

## “NURALI” TURKUM DOSTONLARINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI



*Zafar Hayitov*

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI*

*“Doston ijrochiligi” kafedrasi mudiri, dotsent v.b.*

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-I6-8>

**Annotatsiya:** O‘zbek xalqi og‘zaki poetik ijodi g‘oyaviy-badiiy salmog‘i jihatdan juda boy bo‘lgan dunyo xalqalaridan biri hisoblanadi. Mana shu boy og‘zaki badiiy meros orasida xalq eposi – dostonlar yetakchi o‘rin egallaydi. Bu ulkan xazina namunalaridan biri bo‘lmish dostonlar hozirga qadar kishilarni Vatanga, ona xalqiga mehr-muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda yetakchi manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada “Nurali” turkum dostonlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Nurali”, doston, baxshi, xalq, folklor, qahramon.

**Аннотация:** Узбекский народ – один из народов мира, устное поэтическое творчество которого очень богато по идейно-художественному весу. Среди этого богатого устного художественного наследия ведущее место занимают народные былины – былины. Былины, являющиеся одним из примеров этого огромного сокровища, служат ведущим источником воспитания людей в духе любви и верности к Родине и Родине. В данной статье научно анализируются идейно-художественные особенности дастан серии «Нурали».

**Ключевые слова:** «Нурали», эпос, башши, народ, фольклор, герой.

**Abstract:** The Uzbek people are one of the peoples of the world whose oral poetic creativity is very rich in ideological and artistic weight. Among this rich oral artistic heritage, the leading place is occupied by folk epics - bylinas. Epics, which are one of the examples of this huge treasure, serve as a leading source of education of people in the spirit of love and loyalty to the Motherland and the Motherland. This article scientifically analyzes the ideological and artistic features of the dastan series “Nurali”.

**Key words:** “Nurali”, epic, bakhshi, people, folklore, hero.

Janubiy O‘zbekistonda Go‘ro‘g‘lining asrandi farzandi Avazning o‘g‘li Nurali haqida dostonlar keng tarqalgan va xalq ichida mashhurdir. Nurali haqida doston dastlab, 1945-yilda yozib olingan bo‘lsa, keyingi 80 yil davomida folklorshunoslar Nurali haqida dostonlar yigirmadan ortiq ekanini aniqlashdi va qirqqa yaqin variantini yozib oldi, bir necha dostonlar nashr etildi. “Nurali” haqidagi dostonlar bosh qahramonning biografiyasiga ko‘ra to‘rtga bo‘lib o‘rganilmoqda.

1. Nuralining tug‘ilishi bilan bog‘liq dostonlar (“Nuralining tug‘ilishi”, “Nuralining yoshligi”, “Nurali va besh yuz mulla bachcha”, “To‘qqiz yuz kun to‘y”);

2. Nuralining o‘smirlik yillariga doir dostonlar (“Oysanam”, “Suluvxon”, “Nuralining yutilishi”, “Jorxun maston”, “Suv parisi”);

3. Nuralining yigitlik, balog‘atga yetib uylanishi, farzand ko‘rishiga oid dostonlar (“G‘upponoy”, “Nurali va semurg”);

4. Nurali epik hukmdor ekanini ko‘rsatuvchi dostonlar (“Jahongir”, “Amirqul”, “Sherali”).

“Nurali” turkumidagi dostonlarning barchasi epik qahramonning qanday kamol topganini ko‘rsatadi. Dostonlarda Nuralining tug‘ilishi, ilmu odob o‘rganishi, ephillik, chaqqonlik, mardlik fazilatlariga ega bo‘lish uchun jismoniy o‘yinlarni, shuningdek ot chopish, kurash, qilichlashish, nayzalashish, merganlik kabi harbiy o‘yinlarni, mashqlarni o‘zlashtirishi izchil bayon etiladi.

“Nurali” haqida dostonlardan “Malla savdogar” eng ko‘p tarqalgan. Hozirgacha dostonning o‘ndan ziyod varianti yozib olingan va to‘rttasi nashr etilgan.

Dostonda Avazxon Chambilda yo‘q payti bolalari Gulnor va Nurali, xotini Uzumko‘zning Ahmad sardor tomonidan sotib yuborilishi, ular chekkan azob-uqubatlar bayon etiladi. Avaz yurtiga qaytgach, voqeani bilib, xotini va bolalarini topib keladi. Tuhmat qilgan Ahmad sardor jazolanadi. “Nurali” haqidagi dostonlarda ham elsevarlik va yurtparvarlik ulug‘lanadi, yaxshilik g‘alaba qilishi ta‘kidlanadi.

Bu biografik turkumlik dostonlari yaqin vaqtlargacha ma‘lum emas edi. Chunki Avazxonning o‘g‘li Nurali bilan bog‘liq doston asosan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan bo‘lib, boshqa baxshilar repertuaridagi Nurali nomi bilan bog‘liq dostonlar yuqoridagi dostonning variantlari deb taxmin qilinadi. Folklorshunoslarning izlanishlari Nurali nomi bilan bog‘liq mustaqil syujetlar mavjudligini ko‘rsatdi. Epik qahramon Nuralining biografiyasi bu turkumlikda uch qismga bo‘lib tasvirlanadi:

1. Nuralining biografiyasini nisbatan to‘liq aks ettiruvchi dostonlar, bular barcha baxshilar repertuarida “Nurali” dostoni deb yuritiladi va ular quyidagi ijodkorlardan yozib olingan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti, Xushvaqt Mardonqul varianti, Mamadrayim baxshi varianti, Umir Safar baxshi varianti, Safar Abdurahimov varianti.

2. Nurali epik biografiyasini qisman yorituvchi dostonlar, bularni shartli suratda “Nuralining yoshligi” deb atash mumkin. Bu doston va uning variantlarida Nurali mustaqil harakat qiladi, biroq unga ko‘p hollarda otasi Avaz ko‘mak beradi. “Nuralining yoshligi” dostonlarining quyidagi variantlari yozib olingan: Mulla Bozor variant (Qashqadaryo), Mo‘min Rahmon varianti (Surxondaryo), Rahmatulla Yusuf o‘g‘li varianti, Yusuf O‘tagan o‘g‘li varianti, Qo‘zi Ro‘ziyev varianti.

3. “Malla savdogar”, “Mayda savdogar” bilan yuritiladigan doston va uning variantlari. Bu dostonlarda Nuralining bolaligi tasvirlanib, voqealar dinamikasi Avaz bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Nuralining o‘zi doston variantlarida passiv ishtirok etadi. Biroq shunga qaramay mazkur doston va uning variantlari Nurali biografik turkumligi doirasida olib qaraladi. Chunki, birinchidan, ularda Nuralining, qisqa bo‘lsa ham epik biografiyasi – bolaligi tasvirlansa, ikkinchidan bu dostonlar asosida yotuvchi asosiy konflikt Nurali bilan bevosita bog‘liq holda yuzaga kelgan. Dostonning quyidagi variantlari yozib olingan: “Nuralining yutilishi” – Bo‘ri baxshi Ahmedov, “Nurali va Gulnor” Xudoyqul Yaxshiyev, “Malla savdogar” – Yusuf O‘tagan o‘g‘li, “Mayda savdogar” – Toshmamat Turonov, “Gulgun pari” – Xushvaqt Mardonqul o‘g‘li va hokazo.

“Nurali” turkumiga oid dostonlarning g‘oyaviy motivi xalqlar va elatlar o‘rtasidagi do‘stlikdir. Har bir dostonda Chambildan boshlangan voqea yoxud Chambillik qahramon hayoti boshqa yurt, boshqa mamlakat bilan bog‘lanadi. Qahramonning ovga chiqishi, muhabbat o‘tida o‘rtanib safarga otlanishi yoki boshqa biron ijtimoiy-maishiy intilishi, albatta, o‘zga hudud va undagi odamlar bilan bog‘lanadi. Turli mamlakatlarning iqtisodiy va ma‘naviy aloqalari avvalo savdo-sotiq ishlari bilan bog‘liq. Savdo karvonlari hamisha mamlakatlarni o‘zaro aloqasini mustahkamlagan. Doimiy yurtma-yurt yurish, savdo-sotiq ishlarini yo‘lga qo‘yish bilan cheklanmagan, balki bir mamlakatdan ikkinchisiga siyosat, ma‘naviyat haqida xabarlarni ham yetkazgan. “Nurali” turkumida dostonlarning katta bir qismini “Malla savdogar” nomi bilan atalishi va keng tarqalishi shu savdogarning epik qahramonning kamolida o‘ynagan muhim o‘rin bilan qiyoslanadi.

Turkiy xalqlarda Malla ismi keng tarqalgan bo‘lib, savdogar uning kasbi yuzasidan olgan taxallusidir. U har bir baxshida Dog‘iston, Gurjiston, Eron, Misr, Zangar kabi turli joylardan deb ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, ammo bir vazifani bajaradi. Ya‘ni Avazga do‘st bo‘lganidan uning xotini, bolalariga yaxshilik qilish. Avaz uni qaroqchilar zulmidan qutqazgan. Shu yaxshilikni qaytarish uchun o‘z hayotini garovga qo‘yib kurashadi. Nurali, Gulnor, Uzumko‘zni Avazning bolalari ekanini bilganidan, ularga mehr-muxabbat ko‘rsatadi. Chorshanbi baxshida va Qodir baxshning birinchi variantida shular uchun qaroqchilar qo‘lida vafot etsa, Chori Umirov, Qahhor Qodir o‘g‘li variantlarida asob-uqubat tortadi va omon qolib Avazga bolalarini topshiradi. Chorshanbi baxshi

variantida Malla savdogar o'rniga uning o'g'li Zulfidin chiqadi. Ushbu baxshi repertuarida Nurali va Zulfidinning do'stligini birgalikda qahramonliklarini ko'rsatuvchi "Zulfidin" nomli doston ham mavjuddir [1, 92-b].

Do'stlik tuyg'usi bo'lg'usi epik qahramonga yoshlikdan singdirilishi lozim degan g'oya va do'stlikni qadrlash, do'stga sadoqat, qiyinchiliklarni birga kurashib yengish zaruriyati har bir dostonda o'z ifodasini topgan. Shu o'rinda Qodir baxshidan yozib olingan "Nurali va besh yuz mullabachcha" damda "Jorxon maston" dostonlarini alohida ta'kidlash lozim. Nurali Avazning zindondan chiqarib ketish haqidagi taklifini rad etadi. Chunki uning uchun yov qo'lida halok bo'lgan besh yuz mullabachchaning, besh yuz do'stining o'chini olmay ketish oriyat. Do'stlar xunini olmay qochish hech qanday mardlik, qahramonlik tushunchasiga to'g'ri kelmaydi.

"Nurali" turkum dostonlarida individual do'stlik, mamlakatlar orasidagi keng aloqaga, bordikeldi, hamkorlikkacha o'sib yetishi ko'rsatiladi. Chambil mamlakati bilan o'zaro bog'langan Zangar, Bog'dod, Misr, Gurjiston yoxud Dog'iston va boshqa yurtlarda zulm yo'qoladi, osoyishtalik qaror topadi, xalq baxtiyor yashaydi. Turli millatlar va mamlakatlar orasida o'zaro mustahkam aloqalar qaror topadi. Shu tarzda xalq o'zining yana bir idealini ezgulik yo'lida ishlash, yashash, baxtli bo'lishida hamkorlik zarurligini olg'a suradi.

Avazning o'g'illari va nabirasi haqidagi barcha dostonlarning syujet linyasida ham xalqning hayotga, baxtli yashashga bo'lgan intilishlarini ulug'lash, haqiqiy insoniy munosabatlar va fazilatlarni romantik buyoqlarda madh etish bilan birga xalq boshiga yog'dirilgan og'ir jabr-jafolarni feodal urushlarga sabab shohlar, riyokor amaldorlarning xatti-arakatlarini qoralash kabilar muhim o'rin tutadi.

"Nurali" turkumi dostonlari haqida fikr yuritar ekanmiz, uning deyarli butun baxshichilik maktablarida ma'lumligi e'tirof etilgan holda dastlab qaysi maktablarda, Samarqand viloyati yoxud Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida yuzaga kelgani masalasiga to'xtalish zarur deb bilamiz. Bu to'g'rida bizgacha fikr yuritgan S.Mamashukurov shunday xulosalarga keladi: Fozil shoir variantiga diqqat qilinsa bu variant o'zining g'oyaviy jihatlari, klassik o'zbek eposi an'analarini o'zida saqlab qolganligi, poetik shaklning ustun hamda "kristall"ligi bilan yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu variantning barqaror g'oyaviy-badiiy jihatlarga egaligi, bizningcha, uning yaratilish o'rni bevosita Samarqand dostonchilik maktablarida ekanligiga ishora qiladi. Bu syujetning keng geografik territoriyaga tarqalishi esa birinchidan, dostonchilik maktablari o'rtasida ijodiy aloqalarning mavdudligi bilan izohlansa, ikkinchidan, u bevosita "j"lovchi o'zbeklarning janubiy tomonlarga siljishi va ularning Qashqadaryo, Surxondaryo ham Janubiy Tojikiston territoriyasida o'rnatilib qolishi bilan izodlanadi [2, 22-b]. Betakror katta talantga badidago'ylik qobiliyatiga ega bo'lgan Fozil shoir Yo'ldosh o'g'li varianti syujeti Janubiy O'zbekistonga tarqalmagan. "Nurali"[3, 118-b] dostonining o'zi quyidagi holatlarning yetarli dalillashganligi bilan yordam beradi: Nuralining o'n yil o'tib, shu o'n yilda ota-onasini ko'rmas, hatto ko'rishni istamay, ulardan duo olmay yorga jo'nashi eposdagi ota-bola, ona-bola mehr-muhabbatini tasvirlash an'anasiga mos emas yoxud haqiqatdan ancha yiroq.

1. Nuralining Marg'umonga nisbatan qiyinchiliklarsiz, boshqacha aytganda kam jasorat ko'rsatib uylanishi.

2. Marg'umon kanizlariga bergan bir yillik muhlat va farzand ko'rishday vaqt orasidagi noaniqlik, Nuralining farzand ko'rishdagi bexabarligi.

3. Jahongirning onasini topishi.

4. Jahongirning Ma'murxonidan besh yuz bola olib toru dashtda bemaqsad yurishi ularga ustozning yo'qligi.

5. Jahongirning bobosi Avazni tanishi.

6. Epik qahramonlar xarakteri xususiyatlariga zid holda Nurali, Jahongir va Marg'umonlarning tarbiyalagan, og'ir kunda rahnamolik qilgan Boymamat o'tinchi chol, kampir bilan xayrlashmay, tuz yegan joy qadrini bilmay ketishi.

7. Avazning o'n yil farzandini ko'rmasligi va yana o'n yil safar ketgan o'g'lini izlamasligi.

Holbuki, Fozil shoir maromiga yetkazib kuylagan "Alpomish", "Malikai ayyor", "Murodxon" yoxud "Shirin bilan Shakar" dostonlarida bu kabi asoslanmagan motivlar, voqealar yo'qligi ham

“Nurali” dostoni Samarqand maktabiga Surxondaryo-Qashdaryo baxshilaridan o‘tgan degan fikrni tasdiqlaydi.

Shuningdek, “Nurali” turkum dostonlari diqqat bilan ko‘zdan kechirilsa, uning dastlabki dostonlari keyingilariga nisbatan mifologik elementlarga ko‘proq o‘ralganini his etish qiyin emas. “Tarkibadaxshon”, “Malla savdogar”ning Chorshanbi baxshi varianti, Qodir baxshining “G‘upponoy”, “Jorxun maston” Qora baxshining “Nurali va semurg” Xushvaqt baxshining “Suv parisi”, “Zarnigor” dostonlari xuddi shu mifologik o‘rinlarning ko‘proq saqlab qolgani bilan Fozil shoir variantidan qadimiyroq ekanini ko‘rsatadi.

So‘nggi xulosa shuki “Nurali” dostonlari syujeti qahramonning tug‘ilishidan to Chambil yurtining uchinchi hukmdori bo‘lishigacha va to‘rtinchi vorisga o‘rnini bo‘shatguncha bo‘lgan hayotini qirقدan ortiq variantlarda aks ettirish bilangina emas, balki Sherobod dostonchilik maktaiy “Sherali”, “Sheralining bandi bo‘lishi”, “Nuralining Avazni qutqarishi”, “Amirqul” singari doston namunalarini mavjudligi bilan ham alodhdada o‘ziga xoslikka egadir.

O‘rni kelganda Go‘ro‘g‘li-Hasan-Avaz, Hasan-Ravshan, Avaz-Nurali-Sherali-Amirdul, Nurali-Jahongir dostonlarini syujetini mukammal o‘rganish uchun turkumlashtirish masalasiga biroz aniqlik kiritish zaruriyati seziladi. Taniqli olim M.Saidov va M.Mirzayevalar “Go‘ro‘g‘li” katta turkumi ichida bir necha kichik biografik turkumlilik borligini tug‘ri ko‘rsatib quyidagicha bo‘ladilar”

- a) “Go‘ro‘g‘li” kichik biografik turkumliligi;
- b) “Avazxon” kichik biografik turkumliligi;
- v) “Hasanxon” kichik biografik turkumliligi[4, 110-b]

Biz keyingi kuzatishlarini xisobga olgan holda Sherobod poetik maktabida Go‘ro‘g‘li+G‘irot+Chambil bilan bog‘liq dostonlarni quyidagicha turkumlashgirishni tavsiya etamiz:

1. “Go‘ro‘g‘li” silsila dostonlari. Bunta Go‘ro‘g‘li tug‘ilishidan nabirasi Jahongir faoliyatigacha tasvirlangan jami dostonar. Umumo‘zbek dostonchiligida ular yuzdan oshadi. Go‘ro‘g‘li silsilasi ikki turkumga bo‘linadi:

- a) Go‘ro‘g‘li biografik turkumliligi;
- b) Go‘ro‘g‘li nasliy turkumliligi.

2. Go‘ro‘g‘li nasliy turkumliligi o‘z navbatida yana to‘rtga ajratiladi.

- a) Hasanxon biografik turkumi;
- b) Hasanxon nasliy turkumi;
- c) Avazxon biografik turkumi;
- d) Avazxon nasliy turkumi.

3. “Hasanxon” va “Avazxon” nasliy turkumliligi dostonlari esa yana quyidagi turlarga guruhlanadi:

- a) Nurali biografik turkumi;
- b) Nurali nasliy turkumi;
- c) Ravshan kichik biografik turkumi;
- d) Sherali kichik biografik turkumi;
- e) Amirqul kichik biografik turkumi;
- f) Jahongir kichik biografik turkumi.

Yuqoridagilardan shu narsa ayon bo‘ldiki, biografik turkumlilik o‘zbek xalq dostonchiligining o‘z navbatida yuksak taraqqiy etganligini ko‘rsatuvchi dalillardan biri hisoblanadi. Biroq bu o‘rinda shuni alohida ta’kidlab o‘tish zarurki, har bir biografik turkum o‘ziga xos mustaqillikka ega bo‘lishi bilan birga ular o‘zaro ichki bog‘lanishlarga ham ega. Mana shu bog‘lanish esa bir biografik turkumlilikka mansub dostonlarning boshqa bir biografik turkumlilikda ishtirok etishi bilan izohlanadi. Masalan, Go‘ro‘g‘lining “Avazxon”, “Hasanxon” yoki “Nurali” biografik turkumlilari dostonlarida Avazning Nurali biografik turkumidagi yoki boshqa turkumlilikdagi dostonlarda ishtirok etishi bunga misol bo‘la oladi.

Nasliy turkumlilik esa biografik turkumlilikni davom ettiradi. Tinglovchining epik qahramon taqdiri bilan jonli qiziqishi, baxshilarning qahramonning ilk epizodik jasoratlarini, uning hayotida

ro'y bergan barcha voqealar – g'ayritabiiy tug'ilishidan tortib o'limiga qadar bo'lgan voqealarni o'z ichiga qamrab olgan butun bir epik biografiyaga birlashtirishga undaydi. Keyinchalik bu mashhur epik qahramon ota-bobosiga avlod-ajdodiga, shon-shuxratiga qabul etuvchiga, jangovar ishini davom etdiruvchiga yoki uning o'limi uchun qasos oluvchiga aylantirilib, ya'ni mustaqil dostonlarning markaziga qo'yiladi. Nasliy turkumlik dunyo xalqlari eposida keng tarqalgan bo'lib, barcha xalqlarning epik ijodida bunday misollar ko'p.

“Go'ro'g'li” turkum dostonlari yuksak san'at asari sifatida xalq tarixining badiiy sintezi hisoblanadi. Uzoq o'tmishlardan buyon tarixning yo'ldoshi, uning chinakam badiiy aks-sadosi bo'lib kelgan xalq og'zaki poetik ijodi namunalari, shu jumladan dostonlarda, tarixiy voqealar xalq ommasining tushunchalari, tasavvuri nuqtai nazaridan, mehnatkash xalq intilishlaridan kelib chiqib badiiy shakllarda aks ettiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ergashev A. Sherobod dostonchilik maktabi. Fil. fanl. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Toshkent-1991.
2. Mamashukurov K. “Nurali” turkum dostonlarining g'oyaviy-badiiy asoslari. Nomz.diss. Toshkent 1985,
3. Fozil shoir Yo'ldosh o'g'li. “Nurali”.
4. Saidov M. “O'zbek dostonchiligida badiiy mahorat”, “Fan”, Toshkent. 1969, 110-bet;
5. Mirzayeva M. Xalq dostonlarida turkumlik masalalari, “O'zbek xalq ijodi”, Toshkent, 1967.